



UO‘K: 37.014.3

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.16617746>

PEDAGOGLARNI IJTIMOIIY HIMOYA QILISHNING QONUNIY KAFOLATLARI

LEGAL GUARANTEES OF SOCIAL PROTECTION FOR EDUCATORS

ЗАКОННЫЕ ГАРАНТИИ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ ПЕДАГОГОВ

Siradjev Ilxom Toxirovich

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi

Moliya-iqtisod departamenti direktori

Rejapova Dilafruz Akramovna

A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti

“Ta’lim menejmenti” kafedrası katta o‘qituvchisi

Annotatsiya.

Ushbu maqolada davlat o‘qituvchilarning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘sishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *Konstitutsiya, qonun, pedagog, huquq, ijtimoiy kafolat.*

Abstract.

This article discusses the State's responsibility to protect the honor and dignity of teachers, to care for their social and material well-being, and to promote their professional growth.

Keywords: *Constitution, law, teacher, right, social guarantee.*

Аннотация.

В статье рассматривается обязанность государства защищать честь и достоинство учителей, заботиться об их социальном и материальном благополучии, содействовать их профессиональному росту.

Ключевые слова: *Конституция, закон, учитель, право, социальная гарантия.*

KIRISH

Bugungi kunda, yoshlarga ta'lim-tarbiya berish - davlatimizning kelajagini hal qiladigan masaladir. Shu bois mamlakatimizda ushbu masalaga davlat miqyosida ulkan e'tibor qaratilmoqda. Agar biz yoshlarimizning ta'lim-tarbiyasiga e'tiborsiz bo'lsak, shu vaqtdan boshlab nafaqat yoshlar balki butun jamiyat tanazzulga yuz tutadi. Ma'rifatparvar bobomiz *Abdulla Avloniyning* “*Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir*” degan so'zlari bejizga aytilmagan.

Bugungi kunda davlatimizda ta'lim sohasida bir qancha islohotlar olib borilmoqda. Ta'limdagi yangi o'zgarishlar nafaqat pedagoglar, o'quvchilar va mamlakatimizdagi ta'lim sifatini oshirilishini hamda xorij tajribalarini o'z farzandlarida ko'rishga manfaatdor bo'lgan ota-onalar uchun ham juda muhim sanaladi.

Mavzuning dolzarbligi. Bilamizki, davlatimiz qomusi hisoblangan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'qituvchilar haqida modda qo'shildi, bu 52-moddada ko'rsatilgan bo'lib ikki banddan iborat.

O'zbekiston Respublikasida o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etiladi.

Davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qiladi¹.

Bu maqsadga yetishimiz uchun Prezidentimiz tashabbuslari, qolaversa, dunyo yoshlari bilan tengma-teng bellasha oladigan, fikrlasha oladigan yoshlarni tarbiyalash uchun esa, albatta, ularga sifatli ta'lim beradigan pedagog kadrlarimizni har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz, ularga zarur shart-sharoitlar yaratishimiz shart. Muhtaram Prezidentimiz tomonidan imzolangan “Pedagogning maqomi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni esa, ushbu masalaga huquqiy asos bo'ldi.

Prezidentimiz tomonidan 2024-yil 1-fevral kuni “Pedagogning maqomi to'g'risida”gi O'RQ-901-son qonun imzolandi.

Ushbu qonun 21 moddadan iborat bo'lib, Qonunning 3-moddasi «Pedagogning maqomi» deb nomlanadi.

Mazkur Qonunda «Pedagog» ga ta'rif berilib, «Ta'lim tashkilotida qonunchilik hujjatlariga muvofiq tuzilgan mehnat shartnomasi asosida ta'lim va tarbiya sohasida kasbiy faoliyatni amalga oshiruvchi hamda tegishli ma'lumotga, kasbiy tayyorgarlikka va ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan jismoniy shaxs pedagogdir», – deb ko'rsatib o'tilgan.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent sh. 2023-yil 30-aprel.

O'zbekiston Respublikasida pedagogning maqomi tan olinadi. Pedagoglarning o'z kasbiy faoliyatini yuritishi uchun tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratiladi, ularning ijtimoiy himoyasi ta'minlanadi va huquqlari amalga oshirilishi uchun kafolatlar beriladi.

Pedagogning huquqlari, sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'si davlat himoyasi ostida bo'ladi deb belgilandi².

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasida pedagogning maqomi tan olinishi, ularning o'z kasbiy faoliyatini yuritishi uchun tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratilishi, ijtimoiy himoyasi ta'minlanishi va huquqlari amalga oshirilishi uchun kafolatlar berilishi belgilandi.

Qonun bilan pedagoglarning huquqlari, majburiyatlari, faoliyatining asosiy kafolatlari, mehnatiga yarasha haq to'lash, rag'batlantirish va ijtimoiy himoya qilish tamoyillari belgilandi.

Qonunning 4-moddasi Murabbiylik deb nomlanib, unda:

umumiy o'rta ta'lim tashkilotida ilk bor kasbiy faoliyatini boshlayotgan shaxsga bir o'quv yili davriga murabbiylikni amalga oshirish uchun tajribali pedagog biriktiriladi.

Murabbiylikni amalga oshirganligi uchun pedagogning bazaviy lavozim maoshiga qo'shimcha haq to'lanishi mumkin.

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotida ilk bor kasbiy faoliyatini boshlayotgan shaxsga bir o'quv yili davriga murabbiylikni amalga oshirish uchun tajribali pedagog biriktirilishi belgilab o'tildi.

Qonunning 5-moddasi Pedagogning kasbiy faoliyati amalga oshirilishini ta'minlash deb nomlanib, unga ko'ra quyidagilar taqiqlanadi:

➤ pedagogning kasbiy faoliyatiga aralashish, uning faoliyatini asossiz ravishda tekshirish, pedagog tomonidan ta'lim oluvchilarning bilimlarini to'g'ri va xolis baholashga ta'sir ko'rsatish, shuningdek unga o'z xizmat majburiyatlarini bajarishga to'sqinlik qilish;

➤ pedagogni kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan ishlarga, shu jumladan hududlarni obodonlashtirishga va qishloq xo'jaligi ishlariga jalb qilish;

➤ pedagogdan uning kasbiy majburiyatlariga taalluqli bo'lmagan hisobotlarni va boshqa ma'lumotlarni, shu jumladan aholining soliqlar, kommunal to'lovlar, kreditlar va boshqa qarzdorligi to'g'risidagi ma'lumotlarni, bitiruvchilarning bandligi ta'minlanganligi haqidagi hisobotlarni shakllantirishini va taqdim etishini talab qilish;

➤ pedagogni ishga joylashtirilmagan, ta'lim bilan qamrab olinmagan va profilaktika hisobida turgan voyaga yetmaganlar hisobini yuritish hamda ularning ijtimoiy moslashuviga ko'maklashish ishlariga jalb etish;

2. O'zbekiston Respublikasining "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-901-son. 2024-yil 1-fevral

➤ pedagogning zimmasiga tovar va xizmatlarni sotib olish majburiyatini yuklash, shu jumladan ish haqidan uning yozma rozilgisiz tovar va xizmatlar uchun mablag' ushlab qolish mumkin emasligi belgilandi.

Shuningdek, pedagogni uning kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan, lekin siyosiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan tadbirlarga (saylovlarni tashkil etish va o'tkazish jarayonlarida ishtirok etishga, test sinovlarida auditoriya nazoratchisi vazifasini bajarish, aholini ro'yxatga olish ishlarida ko'maklashishga, ta'lim tashkilotlarini tekshirish hamda attestatsiyadan o'tkazish jarayonlarida ekspert sifatida ishtirok etishga va boshqalarga) jalb qilish uning roziligiga ko'ra, u bilan tuzilgan shartnomaga asosan, qo'shimcha haq to'lash evaziga, ishdan bo'sh vaqtida yoki ish joyi bo'yicha o'rtacha ish haqi saqlangan holda amalga oshiriladi deb belgilangan.

Pedagogni biron-bir shaklda mehnatga ma'muriy tarzda majburlash, shuningdek pedagogning kasbiy faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashish yoki uning o'z xizmat majburiyatlarini bajarishiga to'sqinlik qilish qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo'ladi.

Demak bundan ko'rinib turibdiki, pedagogni biron-bir shaklda mehnatga ma'muriy tarzda majburlash qonunga xilof ekanligi qat'iy mustahkamlab qo'yildi.

Mazkur qonunga ko'ra, Pedagog o'z kasbiy faoliyatini amalga oshirishda quyidagi huquqlarga ega:

- ✓ zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, o'qitish va tarbiya vositalarini hamda usullarini erkin tanlash va ulardan foydalanish;

- ✓ belgilangan tartibda mualliflik dasturlarini va o'qitish uslubiyotini ishlab chiqish va joriy etish, ijodiy faollik ko'rsatish, shuningdek tegishli o'quv fanlari, kurslari va modullaridan foydalanish;

- ✓ kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishini talab qilish;

- ✓ o'quv, ilmiy va uslubiy yo'nalishlardagi davlat axborot-resurs hamda axborot-kutubxona markazlarining xizmatlaridan bepul foydalanish;

- ✓ davlat ta'lim standartlarini, davlat ta'lim talablarini, malaka talablarini, o'quv rejalari va o'quv dasturlarini ishlab chiqish jarayonida ishtirok etish;

- ✓ ilmiy, ilmiy-tadqiqot va ijodiy faoliyatni amalga oshirish, tajriba-sinov faoliyatida ishtirok etish, innovatsiyalarni ishlab chiqish va joriy etish;

- ✓ qonunchilik hujjatlariga muvofiq ijodiy ta'til olish;

- ✓ ta'lim tashkilotini boshqarishda, shuningdek ta'lim tashkilotining faoliyati bilan bog'liq masalalarni muhokama qilishda ishtirok etish;

- ✓ o'z kasbiy huquqlarini va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish uchun pedagoglarning jamoat birlashmalariga birlashish va ularda ishtirok etish;

- ✓ o'z kasbiy faoliyatiga g'ayriqonuniy ravishda aralashuvdan himoyalani;

✓ pedagogik faoliyati davomida o'ziga birlashtirilgan sinfdagi (guruhdagi, kursdagi) ta'lim oluvchilarning bilimini mustaqil baholash;

✓ ta'lim oluvchilar va ularning ota-onalari (qonuniy vakillari) tomonidan pedagogning kasbiga hurmat bilan munosabatda bo'lishni talab qilish;

✓ davlat sog'liqni saqlash muassasalarida majburiy tibbiy ko'rikdan bepul o'tish (davlat ta'lim tashkilotlari uchun);

✓ ta'lim oluvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda ishtirok etish;

Pedagog qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish bir nechta qonun va qonun osti hujjatlarida belgilanganligiga qaramay, ushbu Qonunda Pedagoglarni ijtimoiy himoya qilish alohida belgilandi.

Ta'lim tashkilotlarining pedagoglarini ijtimoiy himoya qilish davlat tomonidan kafolatlanadi.

Ta'lim tashkilotlarining pedagoglari uchun qisqartirilgan ish vaqti belgilanadi.

Davlat ta'lim tashkilotlarining pedagoglariga davomiyligi ko'pi bilan ellik olti kalendar kundan iborat bo'lgan haq to'lanadigan har yilgi asosiy uzaytirilgan mehnat ta'tili kafolatlanadi.

Pedagoglarning toifalariga (lavozimlariga) mutanosib bo'lgan, qisqartirilgan ish vaqtining va har yilgi asosiy uzaytirilgan mehnat ta'tilining aniq davomiyligi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Respublikaning olis hududlarida joylashgan ta'lim tashkilotlariga boshqa hududlardan mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun jalb qilingan oliy ma'lumotli pedagoglarga qonunchilik hujjatlariga muvofiq bir martalik boshlang'ich yordam puli va uy-joylarni ijaraga olganlik (ijarada turganlik) uchun har oylik pul kompensatsiyasi to'lanadi.

Respublikaning olis hududlarida hamda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida ishlaydigan pedagoglarga imtiyozlar qonunchilik hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

Qo'shimcha ijtimoiy himoya choralari va kafolatlari mazkur Qonundan tashqari boshqa qonun hujjatlarida, mehnat haqidagi huquqiy hujjatlarda, shuningdek xodim va ish beruvchi o'rtasida tuzilgan mehnat shartnomalarida belgilanishi mumkin.

Pedagoglarning farzandlari davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga imtiyozli tarzda qabul qilinadi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari pedagoglarni mahalliy budjetning qo'shimcha manbalari hisobidan moddiy va ijtimoiy rag'batlantirish choralari ko'rishi mumkin.

Pedagoglarning sog'liqni saqlashga doir huquqlari davlat tomonidan kafolatlanadi.

Pedagogning kasbiy faoliyati davomida ro'yxati qonunchilik hujjatlarida belgilangan yuqumli kasalliklarga qarshi bepul profilaktik emlash davlat tomonidan ta'minlanadi.

Davlat maktabgacha, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarining hamda boshqa tashkilotlarning bevosita bolalarga ta'lim va tarbiya berish bilan band bo'lgan pedagoglari davlat sog'liqni saqlash muassasalarida majburiy tibbiy ko'rikdan bepul o'tkaziladi.

Davlat sog'liqni saqlash muassasalarida davlat ta'lim tashkilotlarining pedagoglarini majburiy bepul tibbiy ko'rikdan o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Pedagogni majburiy tibbiy ko'rikdan o'tkazishni tashkil etish ish beruvchining zimmasiga yuklatiladi.

Majburiy tibbiy ko'rikdan o'tish vaqtida pedagog o'z ish joyi (lavozimi) va o'rtacha ish haqi saqlangan holda ishdan ozod qilinadi.

Ta'lim tashkilotlarining pedagoglarini majburiy tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Nodavlat ta'lim tashkilotlarida tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibi mazkur tashkilotlarning mehnat haqidagi huquqiy hujjatlari, shuningdek xodim va ish beruvchi o'rtasida tuzilgan mehnat shartnomalari bilan, xodimlarning undan o'tishda chiqimdor bo'lmasligi hisobga olingan holda belgilanadi.

Ko'rinib turibdiki, pedagoglarni ijtimoiy himoya qilishda ularning sog'ligini saqlashga qaratilgan e'tibor, ayniqsa tibbiy ko'rikdan o'tkazishni bepul tashkil qilinishi va ularning tibbiy ko'rikdan o'tish vaqtida pedagog o'z ish joyi (lavozimi) va o'rtacha ish haqi saqlangan holda ishdan ozod qilinishi belgilab qo'yildi.

Bu bilan ta'lim tashkilotlarida yuzaga kelayotgan ayrim muammolarga chek qo'yildi. Chunki, ayrim ish beruvchilar pedagog 1 yilda bir marta tibbiy ko'rikdan o'tishga majbur deb, tibbiy ko'rikdan o'tish vaqtida ish haqi saqlanmagan holda vaqtincha ishdan chetlashtirishar edi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 53-moddasi Ta'lim tashkilotlarining xodimlarini ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan bo'lib, unda quyidagilar belgilangan:

Ta'lim tashkilotlarining xodimlarini ijtimoiy himoya qilish davlat tomonidan kafolatlanadi.

Ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlariga qisqartirilgan ish vaqti davomiyligi belgilanadi, haq to'lanadigan har yilgi uzaytirilgan ta'til va boshqa imtiyozlar va kafolatlar taqdim etiladi.

Ta'lim tashkilotlarining pedagog va boshqa xodimlariga sanitariya-gigiyenaga oid, epidemiyaga qarshi hamda profilaktika choralari bilan amalga oshiriladigan sog'liqni saqlash kafolatlanadi.

Ta'lim tashkilotlari mehnatga haq to'lash uchun mavjud bo'lgan mablag'lar doirasida mustaqil ravishda ish haqiga, lavozim maoshlariga tabaqalashtirilgan ustamalar belgilashga va mehnatga haq to'lash hamda uni rag'batlantirishning turli shakllarini qo'llashga haqli³.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi "O'zbekiston - 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risidagi PF-37-son [Farmoni](#) doirasida umumiy o'rta ta'lim tizimiga ham bir qancha ishlarni amalga oshirish belgilandi.

4-maqсад: Pedagog kadrlar maqomini oshirish, ularning bilimi va malakasini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish.

Pedagoglarga malakasini oshirish imkoniyatlarini kengaytirish.

"El-yurt umidi" jamg'armasi ko'magida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimida faoliyat olib borayotgan xodimlarni xorijiy mamlakatlarga malaka oshirish va stajirovkaga yuborish rejasini ishlab chiqish.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari rahbar xodimlari mehnatiga haq to'lash sharoitlarini yaxshilash bo'yicha takliflarni ishlab chiqish belgilangan⁴.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Mamlakatimizda pedagoglarni ijtimoiy himoya qilish, ularning sha'nini, obro'sini oshirish, zarur shart-sharoitlarni yaratish, munosib ish haqqi to'lash, ularning sog'ligiga e'tibor qaratish ta'lim sifatini oshishiga nihoyatda katta to'rki bo'ladi deb hisoblaymiz.

Boisi, dunyoning rivojlangan davlatlari tajribasiga qaraydigan bo'lsak, ularda ham pedagoglarning faoliyati va huquqlari qonuniy tarzda himoya qilinishini ko'rishimiz mumkin.

Chunki, eng avvalo, ta'limga qaratilgan muhim e'tibor tufayli davlatning rivojlanishiga, dunyo miqyosida yuksak marralarga chiqishiga hamda xalqimizning farovon turmush tarziga erishishimiz mumkin.

Mamlakatimiz oldida turgan eng muhim maqsad ham, dunyodagi rivojlangan davlatlar qatoriga kirish, yoshlarimizga yetuk ta'lim-tarbiya berish va ilm-fan orqali jahon arenalariga chiqib yuksak marralarni egallashlariga imkon yaratishdan iborat.

Shak-shubhasiz, pedagoglarni ijtimoiy himoya qilishni kafolatlash yoshlarimizga ta'lim-tarbiya beruvchi kasb egalari - pedagoglarning doimiy ravishda bilimlarini oshirib borishlariga ma'naviy ozuqa hisoblanadi.

Shu bilan birga, yangi muvaffaqiyatlarga erishishlarida keng imkoniyat yaratadi hamda mamlakatimiz rivoji yo'lida fidokorona mehnat qilishlariga olib keladi.

3.O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni. Toshkent sh. 2020-yil 23-sentabr. O'RQ-637-son

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston - 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risidagi PF-37-son Farmoni. Toshkent sh. 2024-yil 21-fevral. PF-37-son

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent sh. 2023-yil 30-aprel.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi Qonun. Toshkent sh. 2024-yil 1-fevral. O‘RQ-901-son.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” gi Qonuni. Toshkent sh. 2020-yil 23-sentabr. O‘RQ-637-son.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risidagi PF-37-son Farmoni. Toshkent sh. 2024-yil 21-fevral. PF-37-son.